

JAHON TILSHUNOSLIGIDA IJTIMOIY TARMOQ YOZISHMALARINING TADQIQI

Rahimqulova Lobar Hamro qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Jahon tilshunosligida ijtimoiy tarmoq yozishmalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish ishlari bir necha yillar oldin boshlangan. Bu kabi tadqiqotlar bizning tilshunosligimiz uchun yangi sohalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining lingvistik, psixolingvistik, kriminalistik jihatlarini tadqiq qilishda tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya sohalarini sud-huquq tizimi bilan hamkorlikda faoliyat yuritishiga sabab bo'ldi.*

Kalit so'zlar. *Ijtimoiy tarmoq, yozishmalar, jahon tilshunosligi, lingvistik ekspertiza, sotsiologiya, tadqiqot.*

Abstract. *Linguistic examination of social network correspondence in world linguistics started several years ago. Such research is one of the new fields for our linguistics. In researching the linguistic, psycholinguistic, criminalistic aspects of social network correspondence, it caused the fields of linguistics, psychology, sociology to work in cooperation with the legal system.*

Key words. *Social network, correspondence, world linguistics, linguistic expertise, sociology, research.*

Dunyo miqyosida ilm-fan sohalariga berilayotgan e'tibor bu sohalarning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratmoqda. Tilshunoslikda vujudga kelayotgan yangidan yangi sohalarning boshqa fan sohalari o'rtafiga aloqasi mustahkamlanib, bu uyg'unlikdagi sohalarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Jahon tilshunosligida tilning amaliy vazifasidan samarali foydalanish, huquqshunoslik, kriminalistikaga tatbiq etish xususida turli tadqiqotlar yaratilgan.

Yurtimizda yozishmalarni lingvistik ekspertiza qilishga mo'ljallangan laboratoriya X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida 1951-yilda Toshkent sud-ekspertiza ilmiy-tadqiqot institutida hujjalarni kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi ko'rinishida tashkil etilgan. Bu laboratoriyaning asosiy vazifalari:

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasiga hamda "Advokatura to'g'risidagi"gi Qonunning 6-moddasiga asosan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsning, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi, advokat so'rovi asosida sud xatshunoslik, lingvistik va filologiya sohasida ekspertiza tadqiqotlarini shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida mutaxassis fikri ko'rsatish hisoblanadi.[\[https://e-qaror-respublika.gov.uz\]](https://e-qaror-respublika.gov.uz) X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi

Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi to`g`risidagi NIZOM, 2023-y 6-yanvar.2-um-son buyrug`iga 5-ilova.1-b].

Dunyo tilshunosligida lingvistik ekspertiza kriminalistik holatlarda matnni tahlil etish va dalillarni aniqlashdagi yetakchi omillardan biri bo`lib ulgurgan. Xususan, Jon Olsson kriminalistika bilan bog`liq 50ga yaqin vaziyatlarda lingvistik ekspertiza orqali masalaga yechim topish mumkinligini asoslaydi.[Olsson John. Word Crime. Solving crime thought forensic linguistics.-NY:Continum, 2009.-209p]

Bundan tashqari, Manchester va Aston universitetlarida maxsus lingvistik-ekspertlar tayyorlash bo`yicha tizimli ishlar tashkil etilgan bo`lib, xorijlik tadqiqotchilar ham masofaviy tarzda o`quv kursida tahsil olishlari mumkin.[Musulmonova.K. filol.fan.b.fals.dok. ...diss.Qo`qon-2022].

Keyingi davrlarda yozishma shakllarining katta qismi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotganligi hisobga olinib, lingvistik ekspertiza o`tkazish ham ijtimoiy tarmoq yozishmalari ustida ko`proq amalga oshirilishini talab qila boshladi.

Jahon tilshunosligida ijtimoiy tarmoq yozishmalarini lingvistik ekspertizadan o`tkazish bosqichlari, metod va metodologiyasi bo`yicha ko`plab olimlar o`z tadqiqotlarini amalga oshirishdi. Ijtimoiy tarmoq xabaralari va anonim xatlarni lingvistik ekspertiza qilish tamoyillari M.Kultxard [Coulthard M. and Johnson A. Introduction to forensic linguistic.book. NY.: Routledge- 2007. P 250], Tim Grant [Grant.T.D. Forensic linguistics and the delivery of justice. Book. Birmingham:Linus.-P128], Nicola-Jan Smit [Nicola-Jane Smith . A stylistic analysis of written language behaviour with practical application to anonymous threat letters. Doctor of Philosophy.autoref....dis. Psychology Department University Of Surrey September, 1996. –P 334] tomonidan ishlab chiqildi.[Musulmonova.K. filol.fan.b.fals.dok. ...diss.Qo`qon-2022].

Germaniyalik olim Yurgen Xandke lingvistik ekspertiza da ovozli xabarlar identifikatsiyasini muhim omillardan biri sifatida ko`rsatadi. Y.Xandke yozib olingan ovozning fonetik xususiyatlari, ovoz tempi, ritm va uzunligini hisobga olish kerak ekanligini ta`kidlab ijtimoiy tarmoq yozishmalarining audio ko`rinishini lingvistik ekspertiza qilish bo`yicha qimmatli ma`lumotlar qoldirgan [Handkie Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview. https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds.-2014].

L.V.Ajnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan ikki asosiy turini ko`rsatadi. Birinchidan, ommaviy axborot vositalari materiallari (televideniye, radio, gazeta, jurnallar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoq xabarları ham nazarda tutiladi), dasturlar, og`zaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarda iste`molchilar uchun ma`lumot va xizmatlar, firma nomlari, teledasturlar va boshqalar). Olimning fikriga ko`ra, ushu tarkibiy qismlarda til huquqiy jihatdan tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi.[Musulmonova.K. filol.fan.b.fals.dok. ...diss.Qo`qon-2022].

G`arbda yozma nutq orqali shaxsni aniqlash muammosi XX asrning 40-yillardidan boshlab faol o`rganila boshlandi. Xususan, ingliz olimi Sanford

birinchilardan bo`lib o`zining “Nutq va shaxsyat” nomli asarida og`zaki xulq-atvor insonning shaxsiy xususiyatlari haqida ishonchli ma`lumot manbai ekanligini ta`kidlaydi. [Sanford F. H. Speech and Personality // Psychol. Bull. 1942. 39: 811-45]

Rus tilshunosligida noadabiy leksik unsurlar, ularning qo'llanilishi masalasi bo'yicha D.A.Dubrovina, E.N.Gus, N.S.Papiyans, V.I.Pasibalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [Коровушкин В.П. Основы контрастивной социолектологии: Дисс. ... докт. филол. наук. –Пятигорск, 2005. – 187 с].

Timothy Jay, Krista King, Tim Duncan tadqiqotlarida vulgarizmlarning bola va o'smirlar nutqida qo'llanishi, o'zlashtirilishini irqi kamsitish, tabaqalanishning mavjudligi, ota-onva do'stlar o'rtasidagi ziddiyat, tashqi muhitning zo'ravonligi, ijtimoiy tarmoq uzatmalari, Mass media ta'siri bilan bog'laydilar [Timothy Jay & Krista King & Tim Duncan. Memories of Punishment for Cursing// Sex Roles DOI 10.1007/s11199-006-9064-5].

L.V.Bondarenko tilning fonetik tuzilishi yozma matnlarda yaxshiroq aks etishini ta`kidlaydi. Scherbaning so'zlariga ko'ra, “grammatika va yozuv butunlay to'liq uslubga asoslangan. Og'zaki nutqda “so'zning ideal fonetik tarkibi”ni sof holda aniqlash qiyin”[Bondarenko L.V. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-кооментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики. – 2014. – №10-1(40). – С. 27-29].

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. <https://e-qaror-respublika.gov.uz>. X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi Hujjalr kriminalistik ekspertizasi laboratoriysi to`g`risidagi NIZOM, 2023-y 6-yanvar.2-um-son buyrug`iga 5-ilova.1-b].
2. Musulmonova.K. filol.fan.b.fals.dok. ...diss.Qo`qon-2022].
3. Ollson John. Word Crime. Solving crime thought forensic linguistics.- NY:Continum, 2009.-209p
4. M.Kultxard [Coulthard M. and Johnson A. Introduction to forensic linguistic.book. NY.: Routledge- 2007. P 250], Tim Grant [Grant.T.D. Forensic linguistics and the delivery of justice. Book. Birmingham:Linus.-P128], Nicola-Jan
5. Nicola-Jane Smith . A stylistic analysis of written language behaviour with practical application to anonymous threat letters. Doctor of Philosophy.autoref....dis. Psychology Department University Of Surrey September, 1996. –P 334].
6. Bondarenko L.V. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-кооментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики. – 2014. – №10-1(40). – С. 27-29].
7. Коровушкин В.П. Основы контрастивной социолектологии: Дисс. ... докт. филол. наук. –Пятигорск, 2005. – 187 с].